ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№10(5)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 98 sahifa,
26-oktyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA SODERJANIE CONTENTS

MUNDARIJA

Informatika darslarida algoritmik topshiriqlar orqali 5–6-sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi 10
Muyassar Xodjiyeva Maxmudjanovna

Maktabgacha ta’limda matematikani o‘qitishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish 17
Samatova Xuvvaydo Rasulovna

Asliyat va fransuzcha tarjimalardagi toponimlarning struktur-grammatik modellari 22
Valijon Mamadjonov Alixanovich

“Tarbiya” darslarida raqamli hikoyalar orqali o‘quvchilarda halollik, mas’uliyat va mehr-oqibat fazilatlarini shakllantirish 26
Abdullayeva Surayyo Babojonovna

Kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning imkoniyatlari 32
Komiljonova Mohinur Alllabergan qizi

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarida kasbiy kompetentlikni takomillashtirishda modellashtirishning o‘rni 37
Mamadaliyeva Marhabo Xolmamatovna

Raqamli keyslar asosida bo‘lajak pedagoglarning ijtimoiy-pedagogik profilaktik faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish 43
Raximov Sardorbek Kabulovich

Teskari sinf modeli asosida amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlikni tashkil etish metodikasini takomillashtirish 48
Tursunbayeva Sevinch Normurod qizi, Saidov O‘tkirjon Mallayevich

Sinfni boshqarishdagi muammolar va ularning amaliy yechimlari 53
Xidirov Baxrom Dobilovich

Loyiha texnologiyasining lingvodidaktik asoslari 60
Muhammadaziz Omonov

O‘smirlarda egoizm psixodiagnostikasi 65
Karayeva Yulduz Xushbakovna

Oliy pedagogik ta’limda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning integrativ yondashuvga asoslangan metodikasi 69
Jo‘rayev Shuxratbek Maxamadaliyevich

Inklyuziv ta’lim sharoitida logopedik yordamni tashkil etishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlari 73
Azimova Dilnoza Sherzodovna

Talabalarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirishning psixologik omillari 76
Baxriyeva Nargiza Axmadovna

Bolalar adabiyoti vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy tanlov kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi 81
Duschanova Nilufar Sabirbayevna, Nurmetova Nazokat Baxtiyorovna

Nogiron farzandli onalarda psixologik farovonlikning himoya resurslari: nazariy-metodologik tahlil 86
Kasimova Xulkar Atabayevna

Intellektual rivojlanishida buzilishlari bo‘lgan o‘quvchilar bilan korreksion-logopedik ishda vizual tayanchlar va muqobil kommunikatsiyani qo‘llash modeli 90
Raximova Dildora Saidbasitovna

Дети с комплексными нарушениями развития 93
Д. Т. Гапурова

INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA LOGOPEDIK YORDAMNI TASHKIL ETISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Azimova Dilnoza Sherzodovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), Alfraganus University, Ijtimoiy fanlar fakulteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi
ORCID: https://orcid.org/0009-0007-4410-023X

Annotatsiya: Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim sharoitida nutqiy rivojlanishida qiyinchiliklari bo'lgan bolalarga logopedik yordam ko'rsatishni tashkil etishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlari nazariy jihatdan tahlil qilingan. Normativ-huquqiy hujjatlar hamda umumta'lim muassasalarida logopedik xizmatni tashkil etishga oid ilmiy tadqiqotlar tahlili asosida bolalarning individual ehtiyojlarini aniqlash, nutqiy va kommunikativ imkoniyatlarini funksional baholash, individual yordamni rejalashtirish, mutaxassislararo hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda rivojlanish dinamikasini monitoring qilish jarayonlarini yagona tizimga birlashtiruvchi konseptual model taklif etilgan. Shuningdek, mazkur modelni ta'lim muassasalari faoliyatiga tatbiq etish uchun zarur tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar va logopedik yordam sifatini baholash ko'rsatkichlari nazariy jihatdan asoslangan. Tadqiqot nazariy-tahliliy xususiyatga ega bo'lib, taklif etilgan modelning empirik samaradorligini baholashni nazarda tutmaydi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, logopedik xizmat, individual yordam, kommunikativ ishtirok, tashkiliy-pedagogik mexanizm, funksional baholash, mutaxassislararo hamkorlik, monitoring.

Abstract: This article presents a theoretical analysis of the organizational and pedagogical mechanisms for providing speech and language therapy services to children experiencing speech and language development difficulties in inclusive education settings. Based on an analysis of regulatory and legal documents and scientific studies addressing the organization of school-based speech and language therapy services, a conceptual model is proposed that integrates the identification of children's individual needs, functional assessment of their speech and communication abilities, individualized support planning, interdisciplinary collaboration, and monitoring of developmental progress into a unified system. Furthermore, the organizational and pedagogical conditions required for implementing the proposed model in educational institutions, along with indicators for assessing the quality of speech and language therapy services, are theoretically substantiated. The study is theoretical and analytical in nature and does not involve an empirical evaluation of the proposed model's effectiveness.

Key words: inclusive education, speech and language therapy services, individualized support, communicative participation, organizational and pedagogical mechanism, functional assessment, interdisciplinary collaboration, monitoring.

Аннотация: В статье представлен теоретический анализ организационно-педагогических механизмов оказания логопедической помощи детям, испытывающим трудности речевого развития, в условиях инклюзивного образования. На основе анализа нормативно-правовых документов и научных исследований, посвящённых организации логопедической службы в общеобразовательных учреждениях, предложена концептуальная модель, объединяющая выявление индивидуальных потребностей детей, функциональную оценку их речевых и коммуникативных возможностей, планирование индивидуальной помощи, организацию междисциплинарного взаимодействия и мониторинг динамики развития в единую систему. Кроме того, теоретически обоснованы организационно-педагогические условия, необходимые для внедрения данной модели в деятельность образовательных учреждений, а также показатели оценки качества логопедической помощи. Исследование носит теоретико-аналитический характер и не предполагает эмпирической оценки эффективности предложенной модели.

Ключевые слова: инклюзивное образование, логопедическая служба, индивидуальная помощь, коммуникативное участие, организационно-педагогический механизм, функциональная оценка, междисциплинарное взаимодействие, мониторинг.

KIRISH

Inklyuziv ta'limning pedagogik mohiyati bolani mavjud tizimga shunchaki joylashtirish bilan cheklanmaydi. Uning asosiy vazifasi har bir o'quvchining ta'lim mazmunidan foydalanishi, tengdoshlari bilan muloqot qilishi hamda guruh va sinf faoliyatida mazmunli ishtirokini ta'minlaydigan moslashuvchan muhitni shakllantirishdir.

Nutqiy rivojlanishidagi qiyinchiliklar mazkur jarayonlarga bevosita ta'sir etadi: bola ko'rsatmani anglashda, javobni ifodalashda, hamkorlikdagi topshiriqlarni bajarishda va o'z ehtiyojini bildirishda qo'shimcha yordamga muhtoj bo'lishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori inklyuziv ta'limni rivojlantirishning dastlabki tizimli asoslaridan biri bo'ldi [1].

2026-yil 4-avgustdagi PQ-292-son qarorda esa bolalarning funksional imkoniyatlari va kundalik ishtirokini kompleks baholash, to'siqsiz muhit, individual ta'lim rejalari hamda korreksion-pedagogik qo'llab-quvvatlash masalalari ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [2]. Bu yangilanish logopedik yordamni alohida xonada mashg'ulotlar majmuasi sifatida emas, ta'lim tashkilotining yagona qo'llab-quvvatlash tizimi sifatida tasavvur etishni talab qiladi.[1][2]

Maqolaning maqsadi - inklyuziv ta'lim muassasasida logopedik yordamni tashkil etishning o'zaro bog'langan tarkibiy qismlarini ajratish va ularning konseptual tashkiliy-pedagogik modelini tavsiflash.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-tahliliy metodologiyaga asoslandi. O'zbekiston Respublikasining inklyuziv ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlari [1; 2] hamda maktab sharoitida logoped va boshqa mutaxassislarning hamkorligini o'rgangan tizimli adabiyotlar sharhi [3] qiyosiy va mazmuniy tahlil qilindi.

Tahlilda besh mezon qo'llandi: xizmatdan foydalanish imkoniyati, baholashning funksionalligi, individual rejalashtirish, mutaxassislar hamkorligi va natijalarni qayta ko'rib chiqish. Kommunikativ ishtirokni talqin etishda Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining Faoliyat, nogironlik va salomatlik xalqaro tasnifidagi faoliyat va ishtirok kategoriyalari ham nazariy mezon sifatida olindi [4].[3]

Maqolada keltirilgan model mualliflik ilmiy-metodik taklifi bo'lib, uning samaradorligi maxsus tashkil etilgan tajriba-sinov orqali hali tekshirilmagan. Shuning uchun "natijalar" atamasi empirik tajriba emas, manbalar tahlilidan olingan konseptual natijalarni bildiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil logopedik xizmatni tashkil etishda besh o'zaro bog'liq mexanizmni ajratish maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi.

Birinchi mexanizm - **ehtiyojni dastlabki aniqlash va yo'naltirish.** Pedagog yoki ota-ona bildirgan kuzatuvlar muhim axborot bo'lsa-da, ular yakuniy logopedik tashxis o'rnini bosa olmaydi. Dastlabki aniqlashda bolaning yoshi, til muhiti, eshitish imkoniyatlari, muloqot vaziyatlari va nutqiy qiyinchilikning ta'limga ta'siri e'tiborga olinishi lozim.

Ikkinchi mexanizm - **kompleks funksional baholash.** Nutq tovushlari talaffuzi, lug'at, grammatika, bog'lanishli nutq, nutqni tushunish va pragmatik muloqot kabi ko'rsatkichlarni bola real ta'lim vazifalarini qay darajada bajara olishi bilan birgalikda tahlil etish zarur. Masalan, ayrim tovushlarni noto'g'ri talaffuz qiladigan bolaning darsdagi ishtiroki yuqori bo'lishi mumkin, biroq murakkab og'zaki ko'rsatmalarni tushunishdagi qiyinchilik boshqa o'quvchining o'zlashtirishiga jiddiy to'siq yaratishi mumkin. Demak, yordam ustuvorligi faqat klinik belgining yaqqolligiga qarab belgilanmasligi kerak.

Uchinchi mexanizm - **individual yordamni rejalashtirish.** Rejada bolaning mavjud kompetensiyalari, o'zlashtirilishi kerak bo'lgan aniq funksional maqsadlar, qo'llanadigan pedagogik moslashtirishlar, mas'ul mutaxassislar va qayta baholash muddati ko'rsatiladi. Maqsadni "nutqini rivojlantirish" deb umumiy ifodalash o'rniga, masalan, "bola ikki bosqichli og'zaki ko'rsatmani vizual yordam bilan bajaradi" kabi kuzatiladigan xulq-atvor bilan belgilash o'lchash imkonini kengaytiradi.

To'rtinchi mexanizm - **xizmatning sinf faoliyati bilan bog'lanishi.** Logoped kabinetda maqsadli korreksion mashg'ulot o'tkazishi, pedagog esa o'sha ko'nikmaning real dars va o'yin sharoitida qo'llanishiga yordam berishi mumkin. Buning uchun qisqa qo'llanma, vizual tayanch, bir xil ko'rsatma iboralari va muntazam kasbiy maslahatlashuv zarur. Hamkorlik "barcha mutaxassislar bir vaqtning o'zida bitta mashg'ulot o'tkazishi" degani emas; u o'zaro kelishilgan maqsad va mas'uliyatlar tizimidir.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ–4860-son qarori. https://lex.uz/acts/-5044711
2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 4-avgustdagi PQ–292-son qarori. https://lex.uz/uz/docs/-8375051
3 Evans I. O. va boshq. (2025). Language, Speech, and Hearing Services in Schools, 56(1), 234–251. DOI: 10.1044/2024_LSHSS-24-00012

Beshinchi mexanizm - **monitoring va qayta rejalashtirish.** Faqat mashg‘ulotlar sonini qayd etish natijadorlikni ko‘rsatmaydi. Bola egallagan ko‘nikmaning guruhda, sinfda va oilada qay darajada qo‘llanishi, muloqot tashabbuslari, vazifani mustaqil bajarish ulushi va qo‘llab-quvvatlashga ehtiyoj darajasidagi o‘zgarishlar ham kuzatilishi lozim.

Shu asosda “aniqlash - funksional baholash - individual reja - hamkorlikdagi ijro - monitoring - rejani yangilash” ketma-ketligidan iborat takrorlanuvchi model taklif etiladi. Jarayonning uzluksizligi bolaning rivojlanishidagi o‘zgarishlarga mos javob qaytarish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Taklif etilgan modelning asosiy afzalligi logopedik xizmat natijasini alohida tovushni to‘g‘ri aytish kabi tor ko‘rsatkichlar bilan chegaralamasligidir. Nutqiy mashg‘ulotning ta’limiy qiymati bilim olishda, tengdoshlar bilan hamkorlikda va kundalik kommunikatsiyada ko‘rinishi lozim. Maktabdagi logopedik amaliyotda mutaxassislararo hamkorlikni o‘rgangan Evans va hammualliflar sharhi ham hamkorlikni tashkil qilishning o‘zi alohida tadqiqot va kasbiy muvofiqlashtirish masalasi ekanini ko‘rsatadi [3].

Modelni amaliyotga joriy etishda kadrlar yuklamasi, logopedning vaqt resursi, pedagoglarning maxsus tayyorgarligi hamda hududlar o‘rtasidagi imkoniyatlar farqi cheklov bo‘lishi mumkin. Shu sababli har bir muassasa o‘z resurslariga mos tashkiliy reglament ishlab chiqishi, biroq individual baholash va bolaning manfaatlari hisobiga me’yorlarni soddalashtirmasligi zarur. Kelgusida turli muassasalarda model tatbiqining jarayon ko‘rsatkichlari va bolalarning kommunikativ ishtirokidagi o‘zgarishlar empirik tekshirilishi kerak.

Inklyuziv ta’limda logopedik yordam samarali tashkil etilishi uchun ehtiyojni aniqlash, funksional diagnostika, individual rejalashtirish, pedagogik hamkorlik va natijadorlik monitoringi yagona boshqariladigan jarayonga birlashtirilishi kerak. Nazariy tahlil asosida taklif qilingan olti bosqichli takrorlanuvchi model bu jarayonni tizimlashtirishga xizmat qilishi mumkin. Mazkur modelning haqiqiy samaradorligini aniqlash esa kelgusi empirik tadqiqotlarning vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori. https://www.lex.uz/acts/-5044711
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 4-avgustdagi PQ-292-son qarori. https://lex.uz/uz/docs/-8375051
3. Evans I. O., Spence C. M., Rodgers W. J., Scott L. A. A Systematic Literature Review on School-Based Speech-Language Pathology Collaboration Research. Language, Speech, and Hearing Services in Schools. 2025;56(1):234-251. DOI: 10.1044/2024-LSHSS-24-00012
4. World Health Organization. International Classification of Functioning, Disability and Health (ICF). Geneva: WHO; 2001. https://www.who.int/standards/classifications/international-classification-of-functioning-disability-and-health

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №10(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.